

# Yashil

IQTISODIYOT  
TARAQQIYOT  
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4



No 6

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'sratish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# **Yashil**

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 420 sahifa.*

*E'lon qilishga 2024-yil 30-iyunda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir o'rinnbosari:**

Karimov Norboy G'aniyevich

**Muharrir:**

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

### **Tahrir hay'ati:**

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxridinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lif muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUpfessori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururaturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururaturasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Күнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Editorial board:**

**Salimov Oqil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Rae Kwon Chung**, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

**Osman Mesten**, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Buzrukhanov Sarvar Khan Munavvar Khanovich**, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich**, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

**Siddikova Sadokat Ghaforovna**, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Samadov Askarjon Nishonovich**, CSc, Prof., of TSUE

**Slizovsky Dimitriy Yegorovich**, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

**Akhmedov Ikrom Akramovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli**, DSc, Prof., of TSUE

**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

**Ochilov Farkhad**, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

**Eshtayev Alisher Abduganievich**, DSc, Prof., of TSUE

**Shoira Azimovna Musaeva**, professor of SamDu IS Institute

**Cham Tat Huei**, PhD, professor at USCI University, Malaysia

**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

**Glazova Marina Viktorovna**, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, associate professor of TSUE

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, independent researcher of TSUE

## **Ekspertlar kengashi:**

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti  
**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, p.f.f.d., (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokururaturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## **Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Oliy ta'lif islohotlarida – muhandislik maktablarini institutsional rivojlantirish asoslari .....	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna	
Xufiyona iqtisodiyot mamlakatimiz rivojiga to'siq bo'lmoqda .....	20
Muxiddin Kalonov	
"Yashil" iqtisodiyotni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish .....	24
Muhammadiyeva Maftuna	
Oliy ta'lif tizimidagi islohotlarda innovatsion yechimlarning zarurati .....	27
Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna	
Hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishda ish beruvchilar va yonlanuvchilar o'rtaidagi iqtisodiy munosabatlarni aniq sotsiologik baholash.....	31
Dustmurodov Orifjon Ismatillovich	
Перспективы развития средств размещений в экологическом туризме на охраняемых природных территориях Узбекистана .....	40
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
Bank kartalari orqali ko'rsatilayotgan xizmatlari bozorining rivojlanish borasidagi asosiy tendensiyalari va muammolari .....	49
Toiyirov Yunus Alamovich	
Kichik biznes subyektlarida innovatsionraqabatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish orqali import o'rnini bosish strategiyasini shakllantirish istiqbollari.....	55
Rustamov Alisher Raxmataliyevich	
Nodavlat umumiy o'rta ta'lif maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashda innovatsion usullardan foydalanish.....	62
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Tijorat banklarida bank risklarini boshqarishning strategik ahamiyati.....	67
Altibayev Xudayberdi Kuvandikovich	
Klaster iqtisodiy subyekt sifatida: mohiyati va tasnifi.....	71
Usmonov Sharofiddin Pazltdinovich	
Tijorat banklari tomonidan yoshlar tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning nazariy-uslubiy jihatlari.....	76
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
Oliy ta'lif muassasalari xalqaro tasnifi: nazariya va tendensiya.....	81
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
Iqtisodiyot transformatsiyasi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini boshqarishda metodologik yondashuvlar va ilmiy qarashlar .....	86
Jivanova Nargiza Esanboevna	
Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini samarali tashkil etish mezonlari va omillari.....	93
Z. Abdikarimova, S. Madaminov	
Savdo korxonalari boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari.....	97
Q. J. Mirzayev, Sh. M. Islomov	
Sociological Assessment of Migration Processes .....	102
Gulmurodov Kamoliddin Abdukodir ugli	
Current issues of business management in the context of digitalization of the economy .....	112
Safarov Bakhtiyor Djurakulovich, Kadirova Zulhumor Namazovna, Dadabaev Kuchkor Abdullaevich	
Методические основы маркетинговых стратегий акционерных обществ.....	118
Эркинов Шахзод Баходир ўғли	



Insurance Mechanisms in Foreign Trade: Mitigating Risk and Facilitating Global Commerce .....	125
Abirkulova Sohibjamol	
Improving the Conceptual Framework for Modernizing the Tax System (Using the Example of Uzbekistan).....	130
Bakhrom Nomazov	
Ayollarning inson kapitalini rivojlantirishda kraufdanding platformasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	136
Bozorova Saxobat Abdujapparovna	
Evaluating the Environmental Sustainability of Uzbek Firms in the Green Economy.....	142
Nurbek Xalimjonov Ulugbek ugli	
O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlanishida inson kapitalining roli .....	148
Eshmirzayev Faruddin Ilhomjonovich, Salimova Zaxro Sobirjon qizi	
Agrokластерларда асосија виситаларни модернизациялаш ва та'мirlash xarajatlarini tahlil qilish .....	155
G'afforov Ilhomjon Ilyosjonovich, Mirzayev Behzod Abdug'ofur o'g'li, Narzullayev Nodirbek Aziz o'g'li	
Improving the Practice of Increasing the Effectiveness of Managing Innovation Processes in Commercial Banks .....	160
Juraev K. T.	
Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanish .....	164
Mamasoatov Dilshod Ravshanovich	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish va yashirin iqtisodiyotni kamaytirishda soliqlarning roli va ahamiyati.....	169
Madraximov Baxtiyorjon Ortiqboy o'g'li, Rizayev Xabib Abduraufovich, Namazov Sa'dulla Namozovich	
O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tishning joriy holati tahlili.....	175
Rahmatullayeva Dilbar Olimovna	
Buxoro viloyatida savdo xizmatlari raqobatbardoshligini baholash uslubiyatini takomillashtirish..	181
Raxmatov Akmal Anvar o'g'li	
The Contribution of Transport in the Development of Tourism Industry (Case Study: Uzbekistan).....	187
Rofeeva Rukhshona Shavkatovna	
Yoshlarning sayohat manzillarini tanlashdagi omillar .....	192
Qurbanbayev Shuhrat Bakberganovich	
Improving the Effective use of Funds From Taxes and Fees in Kashkadarya Region .....	196
Shakhzod Zokhidov	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida sanoat korxonalarida iqtisodiy salohiyatni boshqarish .....	202
Kadirova Shaxnoza Ilhomovna	
Yangi O'zbekiston oliv ta'lif muassasalarida kadrlar tayyorlash masalalari.....	207
Usmonov Baxodir Suvonqulovich	
Temir yo'l transportida innovatsion faoliyatni rivojlantirish yo'llari .....	211
Nasimov Shavkat Vasiyevich	
O'zbekistonda banklararo raqobat.....	219
Zunnunova Xulkar Muxtorovna	
O'zbekistonning xalqaro moliya tizimiga integratsiyasini ta'minlashni takomillashtirish .....	225
Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna, Kuchkarov Sanjar Baxtiyarovich	
Respublikamizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari .....	229
Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov	
Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mohiyati.....	233
Aripov Oybek Abdullayevich, Madiyorov Shavkatbek Muxtarovich	



Aksiyadorlik jamiyatlarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy holat to'g'risida hisobot tuzishning bosqichlari.....	237
Eshonqulov Azamat Abdiraximovich	
Davlat moliyaviy nazoratining turlari va shakllari.....	241
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
Tog' turizmini rivojlantirish manfaatlari yo'lida investitsiya resurslarini to'plash mexanizmlarini ishlab chiqish samaralari.....	245
Xidirov Alimardon Dagarovich	
The Main Role of the Teacher While Managing the Classroom and Some Aspects of Teaching English .....	248
Nilufar Turdiyeva	
Davlat xususiy sherikchilik faoliyatining menejment funksiyalari tizimida muvofiqlashtirishning ahamiyati .....	252
Suleymanov Farrux Raximjon o'g'li	
Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlari va sohada amalga oshirilayotgan tarkibiy-miqdoriy o'zgarishlar dinamikasi .....	256
G. Sh. Qo'idosheva, A. J. Toshboyev	
Логистика в Азии: опыт и перспективы оптимизации .....	260
Каюмова Паризода	
Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish imkoniyatlarini oshirishning zamonaviy yondoshuvlari... G. I. Abdulxamidova	266
Повышение эффективности использования местных налогов и сборов в Кашкадарье: международная перспектива .....	272
Shahzad Zokhidov	
Financial and Credit Support for Investment and Innovative Developing Activities of a Tourist Enterprise .....	275
Rozokov Mukhammadaziz Mansurovich	
Роль контроля качества по хранению и переработке зерна в обеспечении продовольственной безопасности Республики Узбекистан .....	282
Холбекова Дилобар Расулжон кизи	
O'zbekistonda mahalla boshqaruvi tizimi faoliyatini takomillashtirish masalalari.....	289
Gafurov Ubaydullo Vaxabovich	
Kichik biznes va tadbirkorlik sharoitida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishning xorijiy tajribasi .....	296
Dilnoza Meyliyeva	
Cross Cultural Preoblems in International Business Negotiations .....	301
Xoldarova Fariza Tuxtabayevna	
Yengil sanoatning raqobatbatdosh hududiy-ishlab chiqarish klasterlarini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribani qo'llash .....	304
Haydarova Shoxista	
Konchilik sanoati korxonalarining innovatsion jarayonlarni rivojlantirish xususiyatlari .....	310
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
Korxonalarda risk boshqaruvi mexanizmlarini joriy etish va inson resurslaridan foydalanish istiqbollarini takomillashtirish .....	315
Tashpulatova Muniraxon Mahmudovna	
Spin korxonalar – texnologiyalarni tijoratlashtirishda muhim tuzilma sifatida .....	320
O'rinnov Dilshodjon Axmadjonovich	
Mintaqalarda makroiqtisodiy barqarorlikning ta'minlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni takomillashtirish strategiyasi .....	324
Xolbekova Feruza Rasulovna	



Iqtisodiy o'sish va aholi daromadlari o'rtasidagi bog'liqlikning nazariy asoslari.....	329
Hasanova Nigora Hasan qizi	
Современное состояние маркетинга на рынке ценных бумаг Республики Узбекистан.....	334
Юлдашев Жамшид Абрарович	
Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik asosidagi investitsion loyihalarni moliyalashtirish .....	340
S. A. Karabayev	
Axborot telekommunikatsiya tarmog'i korxonalarida korporativ boshqaruv samaradorligi .....	334
Temirov Anvarxon Abdulazizxonovich	
Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlari va sohada amalga oshirilayotgan tarkibiy-miqdoriy o'zgarishlar dinamikasi .....	347
G.SH.Qo'idosheva <sup>1</sup> , A.J.Toshboyev <sup>2</sup>	
Yengil sanoatning raqobatbatdosh hududiy-ishlab chiqarish klasterlarini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribani qo'llash .....	351
Haydarova Shoxista	
Konchilik sanoati korxonalarining innovatsion jarayonlarni rivojlantirish xususiyatlari	
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna .....	357
Korxonalarda risk boshqaruvi mexanizmlarini joriy etish va inson resurslaridan foydalanish istiqbollarini takomillashtirish .....	362
Tashpulatova Muniraxon Mahmudovna	
Spin korxonalar - texnologiyalarni tijoratlashtirishda muhim tuzilma sifatida .....	367
O'rinoval Dilshodjon Axmadjonovich	
Yoshlarning sayohat manzillarini tanlashdagi omillar .....	371
Qurbanbayev Shuhrat Bakberganovich	
Mahalla institutini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning institusional tahlili.....	375
Bahriiddinov Viqorjon Akbar o'g'li	
O'zbekistonda investitsion faoliyat, uni moliyalashtirishning zamonaviy ko'lamlari .....	380
va o'ziga xos xususiyatlari	
Kuvatova Oliya Sheraliyevna, Husenov Muhriddin Bahriiddinovich	
Xalqaro moliya institutlari faoliyatining davlatlar rivojlanishiga ta'siri (Yevropa Tarraqiyot va Tiklanish banki misolida).....	384
Muxtorov Jahongir Muxtor o'g'li	
Davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga muvofiq daromadlar hisobini tashkil etish .....	390
Meliboyev Akmal G'aybullayevich	
Qurilish materiallari ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy ishlab chiqarish fondlarining t uzilishi hamda hajmi .....	394
Muxtaras Karimova Isroiljon qizi	
Ayollar tadbirkorligi nazariyasining takomillashuvi xususida.....	398
Sharofiddinova Gulnoza Ilhomjonovna	
O'zbekistonda soliq ma'murchiligidagi joriy etilgan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish masalalari .....	403
Maxmadustov Jalol Maxmadustovich	
Soliq majburiyatlari ijrosini takomillashtirish yo'llari.....	408
Mirzaaliyeva Gulchehra Abduvali qizi	
Cравнительное исследование финансовой отчетности, подготовленной в соответствии с МСФО и НСБУ.....	413
Эргашева Шахло Тургунновна	



# O'ZBEKISTONDA INVESTITSION FAOLIYAT, UNI MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY KO'LAMLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Kuvatova Oliya Sheraliyevna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
katta-o'qituvchisi

**Husenov Muhriddin Bahriiddinovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
Moliya fakulteti talabasi

**Annotatsiya:** Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan investitsion faoliyatning ko'lami (masshtabi) va uning rivojlanish sur'atlari, eng avvalo, bunday faoliyatni moliyalashtirish tartibi va uning manbalari tarkibiga bog'liqdir. Maqola aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirishning bir qancha jihatlarini o'rganadi. Asosiy e'tibor joriy moliyalashtirish amaliyotlari bilan bog'liq asosiy muammolarni aniqlash, shuningdek, ularni takomillashtirish bo'yicha samarali strategiyalarni taklif qilishga qaratilgan

**Kalit so'zlar:** investitsiyalar, moliyaviy xavfsizlik, moliyaviy risklar, moliyaviy ko'rsatkichlar, foyda ,daromad, aksiyadorlik jamiyatlar.

**Abstract:** The scope (scale) of investment activities to be carried out by any economic entities in the conditions of the market economy and the pace of its development depend, first of all, on the procedure for financing such activities and the composition of its sources. The article examines several aspects of improving the financing of investment activities in joint-stock companies. The main focus is on identifying the main problems associated with current financing practices, as well as proposing effective strategies for their improvement.

**Key words:** investments, financial security, financial risks, financial indicators, profit, income, joint-stock companies.

**Аннотация:** Объем (масштаб) инвестиционной деятельности, которую предстоит осуществлять любым хозяйствующим субъектам в условиях рыночной экономики, и темпы ее развития зависят, прежде всего, от порядка финансирования такой деятельности и состава ее источников. В статье рассматриваются некоторые аспекты совершенствования финансирования инвестиционной деятельности в акционерных обществах. Основное внимание уделяется выявлению основных проблем, связанных с существующей практикой финансирования, а также предложению эффективных стратегий по ее совершенствованию.

**Ключевые слова:** инвестиции, финансовая безопасность, финансовые риски, финансовые показатели, прибыль, доход, акционерные общества.

## KIRISH

Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish deganda, ajratilgan mablag'larni ma'lum bir investitsiya loyihasining ehtiyojlari uchun foydalanishning aniq maqsadli mohiyati tushuniladi. Faoliyatini moliyalashtirish asosan moliyaviy aktivlarga emas, balki real aktivlarga investitsiyalarni jalb qiluvchi investitsiya loyihalarni moliyalashtirish uchun ishlataladi. Xususan, yangi turdag'i mahsulotlar va yangi texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va o'zlashtirishga yo'naltirilgan innovatsion faoliyatini moliyalashtirishning eng muhim usuli bo'lib xizmat qiladi. Mamlakatda yirik infratuzilma loyihalarni amalga oshirish, zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarish obyektlarini barpo etish maqsadida iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, chet el investitsiyalarini faol jalb qilish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoxda. Shu bilan birga, mazkur sohadagi faoliyatning samaradorligiga, eng avvalo, mayjud resurslardan nooqilona foydalanish, investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi va rentabelligi yuzaki o'rganilganligi bilan bog'liq qator kamchiliklar salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turli iqtisodiy adabiyotlarda “investitsiya faoliyati” tushunchasi mazmunmohiyatiga turlicha ta’riflar berilgan. Ularni chuqur va keng tadqiq etib o’tgan holda, investitsiya faoliyati mazmuniga berilgan quyidagi ta’riflarga alohida to’xtalib o’tishni lozim.

Iqtisodchi olim Neshitoyning fikricha, “Investitsion faoliyat – bu daromad olish va foydali samaraga erishish maqsadida mablag’larni joylashtirish (investitsiyalash) va amaliy harakatlarni amalga oshirish yig’indisidir” deb ta’rif bergen.

L.L.Igonina shuningdek, investitsiya faoliyatini tor mazmunda ham tushunish mumkinligini aytib o’tadi. Unga ko’ra: “investitsiya faoliyati yoki boshqacha qilib aytganda xususiy investitsiya faoliyati (investitsiyalash) o’zini investitsiya resurslarining qo’ymalarga aylanishi jarayoni sifatida namoyon etadi” deb tushuntiradi.

Xitoylik olim F.Xiaolan mamlakatning innovatsion salohiyati oshishining unumdoorlikka ta’sirini tahlil etadi. Uning tadqiqotlari natijalariga ko’ra, ichki investitsiyalar umumiyligi innovatsiya salohiyatiga salmoqli ijobjiy ta’sir ko’rsatadi. Ammo bu ta’sir qabul qiluvchi milliy iqtisodiyotning absorbsion salohiyati va innovatsiyalarni ta’minlovchi omillarning mavjudligiga bog’liq bo’ladi.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan D.G’.G’ozibekov “investitsiyalarning mazmuni aniq va ishonchli manbalardan mablag’lar olish, ularni asosli holda safarbar etish, rikslar darajasini hisobga olgan holda kapital qiyomatini saqlash va ko’zlangan samaranı olishdan iborat bo’ladi” kabi ta’rif bergen. O’A. Haydarovning fikricha, “investitsiya faoliyati – bu hozirgi zamон talablariga javob beruvchi, yangi ilg’or innovatsion g’oyalarni ishlab chiqish va uni asoslash, ularni moddiy-texnik va moliyaviy ta’minlashdir. Buning natijasida, barpo etilayotgan soha faoliyatini moliyalashtirish orqali, investorlarni yuqori foyda olishga erishish imkoniyatlarini vujudga keltiradi” deb ta’rif berib o’tgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada O’zbekiston va xorijiy mamlakatlar iqtisodchi olimlarining investitsiyalar va investitsion faoliyatini moliyalashtirishning manbalari va usullarining nazariy jihatlariga bag’ishlangan ilmiy asarları o’rganilgan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida adabiyotlarning qiyosiy tahlili va farazni asoslash usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Investitsiya faoliyati investorning o’z resurslarini investitsiya obyektiga safarbar etishga asoslanar ekan, mazkur faoliyat investorning maqsadiga ko’ra tashkil etilishi va moliyalashtirishini taqozo etadi. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning zarurligi shuning bilan izohlanadiki, investitsiya faoliyatiga yo’naltirilgan har qanday sarmoya, pirovardida, o’z-o’zidan investor manfaatlarini ta’minlab bera olmaydi. Bilamizki, investorlar doimo amalga oshirgan investitsiya faoliyatidan katta foyda va samara olishni ko’zlaydilar. Bu orqali o’z kapitalini ko’paytirish va uni bozor risklari ostida qiyamatining yo’qolishidan himoyalashni xohlaydilar. Buning uchun ular eng optimal variantdagи investitsiya loyihasiga kapitalini yo’naltirib, uning harakatini muntazam boshqarib borish orqali ko’zlangan maqsadiga erishishga intiladilar.

- Shunga ko’ra, investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning zarurligini quydagilar bilan izohlash mumkin;
- investitsiya faoliyatini moliyalashtirishni tashkil etishda investorning o’z maqsadiga egaligi;
- investitsiya faoliyati orqali investorning o’z kapitalini yanada ko’paytirishga intilishi;
- investitsiya faoliyatini tashkil etish uning doimiy boshqaruvisiz samarali amalga oshirilmasligi;
- investitsiya faoliyatining samarali kechishiga turli riskli omillarning ta’siri yuzaga kelishi mumkinligi;
- investitsiya faoliyatida investordan tashqari yana ko’plab boshqa ishtiroychilarning qatnashishi hamda ularning ham manfaatlari mavjudligi;
- har qanday investitsiya faoliyati, albatta, davlat va jamiyat manfaatlarining rivojlanishi uchun xizmat qilishga yo’naltirilganligi;
- bozorda kuchli raqobat sharoitining hukm surishi;
- investorning investitsiya resurslari cheklanganligi, shu boisdan uni eng samarali investitsiyalash obyektiда cheklangan vaqtida maksimal foydalanishga bo’lgan intilishi va boshqalar.

Investitsion loyihalarni amalga oshirishda eng muhim masala bu ularni moliyalashtirishdir. Moliyalashtirish – bu investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun zarur bo’lgan elementlarni sotib olish uchun mablag’ sarflashni anglatadi. Ushbu mablag’larni turli manbalardan olish mumkin: budgetdan moliyalashtirish, korxonalarining o’z mablag’laridan foydalanish, kredit resurslari, qarz mablag’lari (aholi va individual firmalar) va boshqalar. Nafaqat investitsiya faoliyatining samaradorligi, balki investorning kelajakdagi hayotiyligi, moliyaviy barqarorligi qaysi manbalar tanlanishiga bog’liq.



Bu jarayonda yaqin yillarda mamlakatimiz miqyosida amalga oshirilishi lozim bo'lgan investitsiya siyosating asosiy yo'nalişlarini ham hisobga olinishi maqsadga muvofiq. Bularning asosiy qismi esa, o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2023–2025 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-459-sonli qarorida o'z aksini topgan bo'lib, unda xususan, 2023–2025-yillarda markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarini o'zlashtirishning yig'ma maqsadli ko'rsatkichlari quydagicha belgilanmoqda (1-jadvalga qarang).

**2-jadval. O'zbekiston Respublikasida 2023–2025 yillarda markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarini o'zlashtirishning yig'ma maqsadli ko'rsatkichlari<sup>1</sup>**

T / p	Ko'rsatkichlar (moliyalashtirish manbalari)	2023–2025-yillarda jami		shundan:					
		mlrd. so'mda	%da	2023-yil		2024-yil		2025-yil	
				mlrd. so'mda	%da	mlrd. so'mda	%da	mlrd. so'mda	%da
1.	Kapital qo'yılma (investisiya)lar – jami	1 214 970,0	100,0	352 717,0	100,0	403 038,0	100,0	459 215,0	100,0
shu jumladan:									
2.	Markazlashgan investitsiyalar – jami	193 587,0	15,9	55 538,0	15,7	65 622,0	16,3	72 428,0	15,8
3.	Markazlashmagan investitsiyalar – jami	1 021 383,0	84,1	297 179,0	84,3	337 416,0	83,4	386 788,0	84,2

1-jadvalda keltirilgan va yaqin yillar (istiqbol)ga mo'ljallangan holatni o'zida ifodalovchi ma'lumotlarni tahlil qilar ekanmiz, respublikamiz aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirishda hisobga olinishi kerak bo'lgan bir necha xulosalarni chiqarishimiz mumkin. Ularning eng muhimlari va jadval ma'lumotlaridan yaqqol ko'rinish turgan ikkitasi, nazarmizda, quydagilardan iborat:

1. 2023–2025-yillarda mamlakatimiz bo'yicha o'zlashtirishga mo'ljallangan investitsiyalarining umumiy hajmi 1 214 970,0 mlrd. so'm qilib belgilangan bo'lishiga qaramasdan, ularning alohida yillar kesimida (masalan, 2023-yilda – 352 717,0 mlrd. so'm, 2024-yilda – 403 038,0 mlrd. so'm va 2025-yilda esa - 459 215,0 mlrd. so'm) yildan-yilga ortib borayotgan tarzda o'rnatilishi qozog'liy sazovordir. Chunki bu mamlakatimiz miqyosida investitsion faoliyatni yanada rivojlantirishga alohida e'tibor berilayotganligidan dalolatdir;

2. Shu davr oralig'ida o'zlashtirilishi lozim bo'lgan investitsiyalarining tarkibiy tuzilishiga e'tibor beradigan bo'lsak, ular deyarli bir xil bo'lib, 16:84 nisbatda ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, shu yillarda o'zlashtirilishi lozim bo'lgan investitsiyalarining deyarli 16,0% markazlashgan investitsiyalar va qolgan 84,0 % esa markazlashmagan investitsiyalar hisobidan amalga oshirilishi lozimligi rejalashtirilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, investitsiyalarini o'zlashtirishda asosiy e'tibor xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'z imkoniyatlariga jiddiy e'tibor qaratilayotganligi va bu siyosat yaqin yillarda mamlakatimiz bo'yicha o'zgartirilmasdan qolishini ko'rsatayotganligini bildiradi. Bunday siyosat mamlakatimiz bo'yicha yuritilayotganligi va bu siyosat aksiyadorlik jamiyatlariga ham tegishli ekanligi hamda ular o'zlarining investitsion faoliyatlarini shunga monand ravishda tashkil etishlari kerakligiga o'ziga xos ishoradir.

Bu jarayonda hozircha inobatga olinishi kerak bo'lgan holatlarning ayrimlari, xususan, investitsiyalarini jalg qilish bo'yicha qo'shimcha vazifalarda o'z ifodasini topmoqda. Xususan, 2023-yil uchun quydagilar xos bo'limoqda<sup>2</sup>:

1. Joriy yilning o'tgan olti oyida tarmoqlarda 3,6 mlrd. AQSH dollarilik investitsiyalar o'zlashtirilgan. Andijon shahri, Buloqboshi, Romitan, G'allaorol, Forish, Karmana, Davlatobod, Chust, Kattaqo'rg'on, Sirdaryo tumanlarining har biriga 50,0 mln. AQSH dollaridan ko'p to'g'ridan to'g'ri investitsiya kelgan. Buning hisobidan, ushbu tumanlarda jami 50 mingta yangi ish o'rni, qo'shimcha 1,0 trill. so'm tushum paydo bo'lgan. Lekin ayrim hudud va tarmoqlarda bu ko'rsatkich past, investitsiya muhiti qoniqarsiz;

1 Жадвал муаллифлар томонидан Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 декабрдаги "Ўзбекистон Республикасининг 2023–2025 йилларга мўлжалланган инвестиция дастурини амалга ошириш чора-тадбирлари тўгрисида"ги ПҚ-459-сонли қарори маълумотлари асосида ҳисоб-китоб қилинган ва тузилган.

2 Кейинги ўринлардаги маълумотлар, Президент Шавкат Мирзиёев раислигида 2023 йилнинг 11 июль куни инвестициялар жалб қилишини янада кенгайтириш чора-тадбирлари муҳокамаси бўйича ўтказилган видеоселектор йиғилиши материалларидан олинди. [president.uz/uz/lists/view/6477](https://president.uz/uz/lists/view/6477)



2. Investitsiya dasturlaridagi 1 500 ta loyihani tezlashtirish va 12,0 mlrd. AQSH dollaridan ziyod xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish zarur. Jumladan, davlat investitsiya dasturi doirasida 11,5 mlrd. AQSH dollarilik 272 ta yirik loyihani muddatidan oldin foydalanishga topshirish bo'yicha "loyihab" ish tashkil etilishi kerak. Masalan, qurilishni tezlashtirish hisobiga 29 ta, uskunalarni olib kelish va o'rnatishga ko'maklashish orqali 49 ta loyihani oldinroq ishga tushirish mumkin. Buning hisobiga, 700,0 mln. AQSH dollarilik investitsiyalarni 2-3 oy oldin o'zlashtirilishiha erishiladi;

3. Hududlardagi loyihalarni infratuzilma bilan ta'minlash uchun nazarda tutilgan 1,2 trill. so'mga qo'shimcha yana 100,0 mln. AQSH dollari yo'naltiriladi;

4. Tarmoqlarda 230 ta loyiha doirasida 4,4 mlrd. AQSH dollarilik, hududlarda 1 200 ta loyiha doirasida 4,6 mlrd. AQSH dollaridagi to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilishi zarur;

5. Endi xorijiy kelishuvlar doirasidagi investorlar bilan ishslash bo'yicha yangi tizim joriy etilishi belgilanmoqda. Unga ko'ra, Investitsiya va tashqi savdo vazirligida "investitsiya menejeri" lavozimi tashkil etilib, u bevosita vazirga bo'yusunadi. Ular xorijiy investorlar bilan doimiy aloqada bo'lib, zarur masalalarni hal qilib boradi. Shu tizim asosida ishlab, joriy yilning o'zida qo'shimcha 3,0 mlrd. AQSH dollarida investitsiya jaib qilish mo'ljallanmoqda;

6. Aksariyat viloyat, tuman va shaharlarda shakllantirilgan investitsiya loyihalari asl imkoniyatlarga mos emas. Xususan, so'nggi ikki oyda sanoati past rivojlangan 60 ta tumanga konsalting kompaniyalari jaib qilinib, 6,5 mlrd. AQSH dollaridagi 2 000 dan ziyod istiqbolli loyiha topilmoqda. Bu – har bir tumanga o'rtacha 110,0 mln. AQSH dollaridagi investitsiya va yuzlab ish o'rni, degani demakdir. Shundan kelib chiqib, konsalting kompaniyalari bilan birga, barcha tuman va shaharlarda "izlanish – ishlab chiqish – amalga oshirish" tamoyili asosida yangi loyihalarni shakllantirish vazifasi qo'yilmoqda. Ular xorijiy investorlarga taqdimot qilish uchun yil yakuniga qadar har bir viloyatda hududiy investitsiya forumi o'tkaziladi. Shuningdek, Hukumat komissiyasi tomonidan iqtisodiyotga katta turtki beradigan 97 ta yirik sanoat loyihasi tayyorlangan. Ular orqali 6,7 mlrd. AQSH dollaridagi investitsiyalarni o'zlashtirish mo'ljallanmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, milliy iqtisodiyotimiz uchun investitsiyalarning ahamiyati bir qator omil-larga bog'liq, ular orasida quyidagilar alohida ajralib turadi: yirik investitsiya loyihalarini qo'shimcha moliyalash-tirish imkoniyati; eng yangi texnologiyalar va uskunalarga, innovatsion loyihalarga chet el sarmoyasini jaib qilish orqali ishlab chiqarishni tashkil qilishning ilg'or usullaridan foydalanish. Shu bilan birga, mamlakatimizda ko'pincha korxonalarini texnik va moliyaviy jihatdan kuchli bo'lgan raqobatchilardan himoya qilish istagi bilan ta'qib qilinadi. Masalan, import qilinadigan tovarlarga katta miqdordagi import bojlari joriy etilishi munosabati bilan respublikamiz korxonalariga o'zlarining eskirgan mahsulotlarini ichki bozorlarda keyinchalik oshirilgan narxlarda sotish uchun qulay imkoniyat yaratilmoqda.

Yuqorida ko'rib o'tilgan vazifalarni imkon qadar tezroq va samarali o'z yechimini topishi, nafaqat, investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari qiymatini baholashda, balki davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi holatini va aholining farovon hayot tarzini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 декабрдаги "Ўзбекистон Республикасининг 2023–2025 йилларга мўлжалланган инвестиция дастурини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-459-сонли қарори. [lex.uz/ru/pdfs/6329448](https://lex.uz/ru/pdfs/6329448)
2. Нешитой С.А. Инвестиции. Учебник. –М.: Дашков и К, 2007. – С. 15.
3. Игонина Л.Л. Инвестиции. Уч.пос.– М.: Экономист, 2005. – С. 25.
4. Xiaolan Fu, 'Foreign Direct Investment, Absorptive Capacity and Regional Innovation Capabilities: Evidence from China', Abstract, Department of International Development University of Oxford October 2007.
5. Фозибеков Д.Ф. Инвестицияларни молиялаштириш муаммолари. – Т.:2002. и.ф.д. дисс. автореф. 11-14 б.
6. <https://www.lex.uz/uz/>
7. <https://www.stat.uz/uz/>

# Yashi

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

İjtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 6**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

